

## OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO’LAJAK BOSHQARUV XODIMLARINI TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Temirov Ortik Suyunovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8414040>

So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish, bu borada raqobat muhitini yaratish bo‘yicha amaliy ishlar yuqori saviyada amalga oshirila boshlandi. 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning strategiyasi to‘g‘risidagi Qonunda “Oliy ta’lim bilan ta’lim darajasini 50 foizga ko‘tarish va ta’lim sifatini oshirish” muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish esa, mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini boshqarish salohiyatini oshirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro talablar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimi sohasidagi islohotlar mazkur jarayonni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish ya’ni mazkur jarayonni an’anaviy uslublaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos keladigan, demokratik prinsiplarga, axborot texnologiyalarni boshqaruv tizimida, xususan ta’lim sifatini yahshilashga asoslangan ta’limning boshqaruv tajribasini egallashni taqozo etmoqda. Shunday ekan, OTMlar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishlari pedagogik jarayon sub’ektlari faoliyatini takomillashtirish, hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, o‘zini - o‘zi boshqarish va takomillashtirishga erishish bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sون Farmonida Respublikamizda oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi asosida raqamli iqtisodiyotda ta’lim muassasalarini strategik boshqarish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun resurslarni ko‘paytirish, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqani yaxshilash, texnologiyalardan samaraliroq foydalanish zarur. Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirishning eng muhim qadamlaridan biri kadrlar salohiyatini oshirish professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun mavjud resurslarni ko‘paytirishdan iborat.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda boshqaruv kadrlarini tayyorlash muammosi juda keskinlashdi. Bu ob’ektiv ravishda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ko‘p yillar davomida rahbarlarni tayyorlash rejalashtirilgan iqtisodiy rivojlanish sharoitida olib borildi. Shu bilan birga, bo‘lajak rahbar birinchi navbatda, o‘zi ishlaydigan ta’lim tizimi sohasini o‘zlashtiradi, bir vaqtning o‘zida iqtisodiyot, psixologiya va boshqalar sohasida bilim oladi, deb taxmin qilingan. Avvalo, kelajakdagи rahbar ishlab chiqarish asoslarini puxta biladi, degan fikr ustun edi.

Hozirgi vaqtida vaziyat o‘zgardi; rahbar o‘z faoliyatini amalga oshiradigan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish tarmog‘idan qat‘i nazar, menejment va to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish bilan bog‘liq zarur kompetensiyalar to‘plamiga ega bo‘lishi kerak degan fikr tobora targ‘ib qilinmoqda.

Bugungi kunda aksariyat OTMlar keng profilli rahbarlarni tayyorlashni afzal ko‘rishadi. Masalan, bu borada Amerikadagi oliy ta’lim tizimi ko‘p yillar davomida ta’lim rahbarlari lavozimini tayyorlash bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Aynan ushbu yurt oliy ta’lim tizimida boshqa mamlakatlarda ta’lim olgan rahbarlar qayta tayyorlanadi. Boshqa mamlakatlardagi OTMlardan farqli o‘laroq, rahbarlarni tayyorlash bo‘yicha mamlakatimiz OTMlari tabiiy ravishda eng yaxshi yutuqlarni amalga oshirishga harakat qilishadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari jiddiy farq qiladigan hududlardan iborat O‘zbekistonda, kasbiy talabga ega bo‘lgan rahbarni tayyorlashda nafaqat qanday ishlab chiqarish va qanday sifatda ishlashini, balki qaysi sohada ishlashini ham taxmin qilish kerak bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ta’lim tizimini rivojlantirish, shunga o‘xshash sharoitlarga ega mamlakatlar tajribasini qabul qilish zaruratga aylanadi.

Yuqoridagi holatlarga qo‘srimcha ravishda, nazariya va amaliyotni tahlil qilish qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi:

rahbar xodimlarni tayyorlashga qo‘yiladigan doimiy talablar va ushbu o‘zgarishlarni baholashda yagona ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarning yo‘qligi;

o‘zgaruvchan mehnat bozori sharoitlari va ushbu treningning pedagogik g‘oyalarini yetarli darajada rivojlantirmaslik, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlari tomonidan qo‘yilgan rahbar xodimlarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablarning qo‘yilishi;

masofaviy o‘qitish texnologiyalari asosida faol ta’limdan foydalangan holda rahbarning muhim kasbiy kompetensiyalarini loyihalashning ob’ektiv zarurati va ushbu jarayonning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

rahbarlarni samarali tayyorlash uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni ta’minalash zarurati va ularni aniqlashga yondashuvlarda jiddiy farqlar;

faol o‘quv muhitida bo‘lajak rahbarning kasbiy tayyorgarligi muvaffaqiyatini doimiy ravishda tashxislash zarurati va ushbu jarayon uchun monitoring tizimining rivojlanmaganligi.

O‘qitishning yuqorida aytib o‘tilgan qarama-qarshiliklari va rahbarning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari yangi tizimni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati bilan bog‘liq muhim ijtimoiy-pedagogik muammoni hal qilish zarurligini belgilaydi (g‘oyalar, mexanizmlar va ularni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shartlari, yangi yondashuvlar samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari).

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarini boshqarishdagi innovatsiyalar qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi va butun dunyo bo‘ylab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda institutsional o‘sishga yordam beradi. Oliy ta’lim muassasalarida bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarini boshqarish tizimini yangilash aslida eng ilg‘or innovatsiyalardir. Institutsional e’tirof oliy ta’lim muassasasining yuqori sifatli ta’lim va zamonaviy boshqaruva tuzilmasiga qo‘yiladigan minimal talablarga javob beradi. Dunyoning yetakchi davlatlarida oliy ta’lim muassasalarini boshqaruv tizimini hamda innovatsion menejmentga muvofiq modernizatsiya qilish yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Oliy ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim resurslaridan foydalanishni axborot-didaktik ta’minalash mazmunini rivojlantirish, iqtisodiy va boshqaruv modellarini nazariy jihatdan umumlashtirish va muvofiqlashtirish asosida didaktik boshqaruv modelini, “Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish” va “modernizatsiya” qilish loyihibarini ishlab chiqish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

## **REFERENCES**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori, O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, PQ-2909-sonli, 18-son, 313-modda, 2017 yil 20 aprel.
2. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun 2020-yil 23-sentabr, O’RQ-637-son (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son). [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Fayzievna H. M. Ways of professional training of children with the limited opportunities //Social and Natural Sciences Journal. – 2012. – T. 4.
5. Xakimova.M.F., Umarova M., Sadriddinova D. IQTISODIYotni RAQAMLAshTIRISH ShAROITIDA BO’LAJAK IQTISODChI MUTAXASSISLARDA BOShQARUV MALAKALARINI ShAKLLANTIRISH //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №. 1.
6. Xakimova M., Kayumova M. The Method Of Formation Of The Students' Professional Etiquette In The Process Of Education //Архив научных исследований. – 2021.